



INGLIZ TILIDA AVIATSIYAGA OID TERMINLARINING LEKSIK XUSUSIYATLARI

Abdulvohidova Nafisa Serobjon qizi

Termiz davlat universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6584580>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10-may 2022

Ma'qullandi: 14- may 2022

Chop etildi: 24- may 2022

KALIT SO'ZLAR

termin, aviatsiya,
leksikologiya, leksik
xususiyat, leksik birliklar,
aeroport, ekipaj, samolyot,
styuardessa

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola leksikologiyaning birligi sanalmish terminlar tadqiqiga bag'ishlangan. Maqolada, asosan, ingliz tilida aviatsiyaga doir terminlar va ularning leksik xususiyatlari haqida so'z boradi. Aviatsiya sohasida qo'llaniladigan so'z va atamalarni leksik jihatdan o'rganish til sohiblarining so'z boyligini oshirishga va so'zlarni muloqot jarayonida to'g'ri qo'llash bilan bog'liq muammolarini bartaraf etishga imkon beradi.

Davlatimiz tarixiga nazar soladigan bo'lsak, O'zbekiston solnomasida uning bugungi kuni va kelajagini belgilab bera oladigan muhim voqealar ko'plab uchraydi. Ayniqsa, mustaqillikdan so'ng jamiyatimizning barcha sohalari tubdan rivojlanib, ularning har biri yildan yilga jadal taraqqiy etib bormoqda va bu, avvalo, mamlakatimiz jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rniga ega bo'lishi uchun muhim poydevor vazifasini bajarmoqda. Hozirgi kunda nafaqat O'zbekistonning, balki dunyo davlatlarining ham yuksak darajada rivojlanishiga ulkan hissa qo'shayotgan sohalardan biri bu – aviatsiyadir. Bugungi kunda fan va texnika taraqqiyoti, ularning alohida tarmoqlarining rivojlanishi barcha sohalar singari tilshunoslikda ham o'z ifodasini topmoqda. So'nggi yillarda ilm-fanning barcha sohalarida erishilgan sezilarli

yutuqlar, ilmiy-texnikaviy ma'lumotlar oqimining tobora ortib borishi sohalarga oid terminlar muammosi bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar oldiga nazariy va amaliy jihatdan yangi vazifalarni qo'ymoqda. Bundan tashqari, boshqa sohalar kabi aviatsiya sanoatining ham rivojlanishi, aviatsiya texnologiyalari tizimlarining murakkablashuvi aviatsiya faoliyati sohasida terminlar tadqiqi muammosiga e'tiborni kuchaytirmoqda. Hech kimga sir emaski, aviatsiya texnologik jihatdan jadal rivojlanayotgan tarmoqlardan biri bo'lib, uning samaradorligi aviatsiya tarmog'i doirasida faoliyat yuritadigan xodimlarining kasbiy mahorati va malakasiga bog'liq. Shu sababli ushbu keng qamrovli soha bilan o'z kelajagini barpo etmoqchi bo'lganlar va ayni shu jabhada faoliyat olib boruvchilar chuqur bilim va kasbiy mahoratga ega



bo'lish bilan bir qatorda soha doirasida qo'llaniluvchi til xususiyatlari va unda qo'llaniluvchi so'zlardan nutqiy jarayonda to'g'ri foydalanish, ularning ma'noviy jihatlari va shu kabilarni ham batafsil o'rganmog'i e'tiborga molik jihatlardan biri hisoblanadi. Buning uchun ular, albatta, barcha termin va so'zlarning leksik xususiyatlari to'g'risida yetarlicha nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lishlari lozim. Ushbu maqola ham aynan shu jihatni ochib berishga qaratiladi.

Mavzuga chuqurroq yondashishdan oldin, eng avvalo, leksik xususiyat degan tushunchaning o'ziga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Ilm-fan nuqtai nazaridan ma'lumki, tilshunoslik fani o'z ichiga turli vazifalarga asoslangan katta-kichik bo'limlarni jamlagan. Ana shunday bo'limlardan biri leksikologiya (grekcha lexis-“so'z” va logos – “ta'limot”) dir va u tilning leksikasini, ya'ni so'z va uning ma'nolari hamda shu bilan bog'liq barcha ma'noviy jihatlarni o'rganish bilan shug'ullanadi. So'zning ta'rifi, so'z va predmet, so'z va tushuncha, lug'atning o'zgarishi, so'zlarning bir-biri bilan munosabati, lug'atning qatlamlari kabi muammolar leksikologiya o'rganadigan asosiy masalalar hisoblanadi [3, 96]. Tilning lug'at tarkibiga aloqador barcha birliklar (masalan: so'zlar, frazeologizmlar) lug'aviy birliklar deyiladi. Lug'aviy birliklar anglatgan ma'nolarning umumiy xususiyatlaridan kelib chiqib, ma'lum tematik turlarga bo'linadi. Leksikologiya so'zlarning hosil bo'lishi, lug'at tarkibining boyishi va nutqi, ishlatilishi, ma'nolarning o'zgarishi, torayishi va kengayishi, turli atamalarining qo'llanilishi kabi bir qator masalalarni qamrab oladi.

Aviatsiya keng tarmoqlarga soha bo'lganligi sababli unda ishlatiladigan har bir so'z

leksik jihatdan o'z ichki tuzilishi va xususiyatlariga ega. Ana shu jihatlarni va so'zlarning atash yoki leksik ma'nolarini mazkur soha doirasida eng ko'p qo'llaniladigan va eng ko'p uchraydigan quyidagi atamalar misolida ko'rib tahlil qilishimiz mumkin:

1. aviatsiya so'zi ilk bor 1863-yilda fransuz yozuvchisi va sobiq dengiz zobiti Gabriel La Landelle tomonidan fanga kiritilgan [1]. U bu atamani avier fe'lidan olgan (“uchish” so'zi uchun muvaffaqiyatsiz neologizm), so'zning o'zi esa lotincha avis (“qush”) so'zidan va -ation qo'shimchasidan olingan [2, 77] bo'lib, havodan og'ir apparatlarda fazoda uchish nazariyasi va amaliyoti; uchish apparatlarining majmui, havo floti degan ma'nolarni bildiradi.

2. aeroport – yunoncha aer...+fransuzcha port < lotincha portus (bandargoh) [6] so'zlarining qo'shilmasidan tashkil topgan bo'lib, havo liniyasi trassasida joylashgan va transport aviatsiyasining muntazam qatnovini ta'minlab turish uchun kerakli inshootlar bilan jihozlangan aerodrom degan ma'nolarni anglatadi [4, 125].

3. ekipaj (1570) – fransuzcha equipage (1520, équiper – moslashtirmoq, o'rnatmoq; 12-asr, Qadimgi Fransuz tilidagi esquiper – kemaga o'rnatmoq, bortga yuklamoq) [7] so'zidan kelib chiqqan bo'lib, odamlarni tashuvchi ot qo'shilgan yengil arava, fayton; kema, kosmik kema, samolyot, tankning shaxsiy tarkibi; ba'zi davlatlar harbiy dengiz flotidagi sohil harbiy qismi kabi ma'nolarni anglatgan va kelayotgan madad kuchlarini qabul qilib joylashtirish va ularga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan [8].

4. samolyot (airplane 1907) - rus tilidan o'zlashgan termin bo'lib, ya'ni самолёт so'zi како (o'zi) va летать



(uchmoq, parvoz qilmoq) soʻzlarining birikishidan hosil boʻlgan. U motorli, qanotli, havodan ogʻir boʻlgan uchish apparati degan maʼnoni bildiradi [4, 436].

5. styuardessa (stewardess) – ingliz tilidan kirib kelgan boʻlib, steward soʻzi va -ess qoʻshimchalarining birikishidan hosil boʻlgan. Ushbu termin samolyot yoki kemalarda yoʻlovchilarga xizmat koʻrsatuvchi shaxs degan maʼnoni bildiradi [4, 574].

Yuqorida keltirilgan misollar orqali xulosa qilish mumkinki, aviatsiya sohasida foydalaniladigan terminlarning leksik xususiyatlarini oʻrganish, ularni ilmiy jihatdan tahlil qilish mazkur soha toʻgʻrisidagi nazariy va amaliy bilimlarni yanada oshirishga, ushbu soha soʻzlarining nutqiy jarayonlarda toʻgʻri qoʻllanilishiga, soʻzlovchi va tinglovchilarga tushunarli boʻlishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E. Dentu. "Aviation ou Navigation aerienne par G. de La Landelle". 6 June 1863 (internet arxividan).
2. Cassard, Jean-Christophe (2008). "Dictionnaire d'histoire de Bretagne" (in French). Morlaix: Skol Vreizh.
3. Z. Xolmanova. Tilshunoslik nazariyasi : darslik.-Toshkent: Nodirabegim, 2019. – 260 b.
4. Toʻxliyev N., Shorahmedov D. A., Aminov M. N., Niyozov A. "Oʻzbek tilining izohli lugʻati" - T.: "Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. - 680 b.
5. [https://www.etymonline.com/word/airport#:~:text=airport%20\(n,1\).](https://www.etymonline.com/word/airport#:~:text=airport%20(n,1).)
6. [https://www.etymonline.com/word/equipage#:~:text=equipage%20\(n.\),person%20in%20a%20small%20case.](https://www.etymonline.com/word/equipage#:~:text=equipage%20(n.),person%20in%20a%20small%20case.)
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Ekipaj>